

YANGI O'ZBEKISTONDA INKLUYUVIV TA'LIMGA E'TIBOR HAMDA AMALIYOTDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14909895>

Boyqulov Azamat Maxram o'g'li

Jizzax viloyat Pedagogik mahorat markazi.

*Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'limg metodikalari kafedrasi o'qituvchisi
azamatboyqulov223@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan inkluyuviv ta'limgning yangi O'zbekistondagi rivojlanishi, inkluyuviv ta'limgning mamlakatimizdagi huquqiy - me'yoriy asoslari, ushbu sohada maktab va maktabgacha ta'limg muassasalarida olib borilayotgan islohotlar va inkluyuviv ta'limgning rivojlanishi va istiqbollari xususida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: Inklyuziv ta'limg, nogiron bolalar, sog'lom bolalar, teng huquqlik, imkoniyat, cheklanganlik, mutaxasis, o'qituvchi, qonun, rivojlantirish.

Аннотация: в трех статьях осуществляется развитие инклюзивного образования в новом Узбекистане, правовая база образования, деятельность школьного и дошкольного образования в этой сфере. обсуждаются развитие и перспективы развития инклюзивного образования.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, дети-инвалиды, здоровые дети, равные права, возможность, ограничение, специалист, педагог, право, развитие.

Abstract: three articles discuss the development of inclusive education in the new Uzbekistan, the legal framework of education, and the activities of school and preschool education in this area. The development and prospects for the development of inclusive education are discussed.

Key words: Inclusive education, disabled children, healthy children, equal rights, opportunity, limitation, specialist, teacher, law, development.

Inkluyuviv ta'limg — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'limg jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'limg tizimidir. "Inkluyuviv ta'limg" atamasi inglizcha „inclusive“

so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, „birlashtiruvchi, qamrab oluvchi“ deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo‘lgan va shartli ravishda sog‘lom, ya’ni sog‘lom bolalarning birgalikdagi ta’limini anglatadi. Inklyuziv ta’limning mazmun mohiyati to‘g‘risidagi bilim va ma’lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. Inklyuziv ta’lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta’lim tarbiya olishlarini ta’minlaydi. Inkyuziv ta’lim manashu jihatni bilan ham ahamiyatlidir.

Inklyuziv ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan bolalar maxsus bilimga muhtoj bo'lмаган tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziy ta'lim alohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatları va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish, shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga ommaviy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.

2020-yil 13-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sun qarori, hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrda "Alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-sun qarorlari ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ4860-sun qarori bilan tasdiqlangan "2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiysi"da alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lif xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
 - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
 - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar shuningdek tegishli kadrlar bilan ta'minlash, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning

moslashishi va integratsiyasi uchun matab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ushbu qaror bilan "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi.

Unda quyidagilar belgilandi:

- inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish;

- o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish choratadbirlari.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, kasb-xunarga yo'naltirish, jamiyatga uyg'unlashtirish masalalalari davlat siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi. Chunki O'zbekistonda taraqqiyotning besh tamoyilidan biri kuchli ijtimoiy siyosat maqsadli yo'lga qo'yilganligi bois, aholining ko'makka muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash huquqiy jihatdan kafolatlangan. Jahon ta'limi amaliyotida ham ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari hilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lim g'oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirishda gender tenglik, ta'lim olish huquqi kafolatlarini kuchaytirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda kadrlar tayyorlash tizimining asosiy va hal qiluvchi bosqichi sifatida boshlang'ich ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, ta'lim jarayonining tashkiliy, metodik komponentlarini, didaktik tizimini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jihatdan o'qituvchilarni ta'limda alohida ehtiyojlari bor bolalar bilan ishlashga kasbiy tayyorlashning nazariy-pedagogik jihatlarini aniqlashtirish orqali inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'limda sog'lom tengqurlari bilan birgalikda imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish ehtiyojini jahon standartlari asosida ta'minlashda tashkilotlararo maqsadli va amaliy natijalarga yo'nalgan hamkorlik hamda integrativ chora-tadbirlar taqozo etiladi. Ta'lim klasteri sharoitida barcha

bolaga birdek sifatli ta'limni tashkil etishda o'qituvchining roli va mavqeい, ota-onalar va keng jamoatchilikning pedagogik savodxonligini oshirish taqozo etiladi.

Mamlakatimizda ham inklyuziv ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilganligi biz kabi mutahassislarni ham juda quvontirdi. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim ilk bor Xalqaro Yunisef tashkiloti tomonidan moliyalashtirilgan "Do'stona munosabat muhitidagi maktab" loyihasi doirasida 2005-2006-yillar davomida boshlangan.

Loyihani amalga oshirishda Respublikamizdagi barcha yetakchi defektolog olimlar, muaxassislar, psixonevrolog, pediator, oftalmolog ixtisosligidagi shifokorlar ishtirok etib, 4 ta viloyatning 10 ta tumani o'rganildi. O'rganilgan 4 ta viloyatning 10 ta tumanidan ta'limga jalg qilinmagan va uyda ta'lim olayotgan 741 nafar bola o'rganilgan (tashxis qilingan).

- 150 nafar rahbar xodimlar seminarlarda va tadqiqot jarayonida ishtirok etishdi (Xalq ta'limi boshqarmasi, sog'liqni saqlash, Hokimiyat, mahalla vakillari);
- 220 nafar inklyuziv sinf o'qituvchilari birinchi bosqich o'qishda qatnashdilar;
- 80 nafar ota-onalar ishtirok etdi;
- 711 ta oilaga kirib borilda, joylarda ularga pedagogik, maxsus psixologik korreksiya ishlari bo'yicha maslahat va metodik yordam berildi;

Loyiha tatijasida integratsiya asosida 2005-2006-o'quv yillaridan boshlab O'zbekistonda ilk bor 102 ta maktabda dastlabki inklyuziv ta'lim boshlandi.

Keyingi o'rinda, 2006-2008 yillarda "Imkoniyati cheklangan bolalar umumiy ta'limi" (JFPR- Yaponiya kambag'allikni kamaytirish jamg'armasi 9091-UZB) ORB loyihasi doirasida inklyuziv ta'limning birodarlashgan maktablar tarzidagi inklyuziv ta'lim sinovdan o'tkazildi. Loyiha doirasida Respublikamizning 6 ta viloyatida 8 ta maxsus maktab va maktab-internatlar va 16 ta umumta'lim maktablarida inklyuziv sinflari tashkil etilib, 350 nafar alohida ehtiyojli maktab-internat o'quvchilari umumta'lim maktablarida integratsiyalashgan ta'lim asosida ta'limi tashkil etildi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etishda quyidagi tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi:

- loyiha ishtirokchilari bo'lgan maxsus maktab-internatlar va birodarlashgan umumta'lim maktablari binosi va maktab-internatdan birodarlashgan maktabgacha bo'lgan yo'llarni ta'mirlandi;

- maktablar nuqson turlarini inobatga olgan holda rekonstruksiya qilishga erishildi;
- o'quvchilarni mакtabga to'siqsiz qatnovini ta'minlash maqsadida maxsus avtobuslar ajratildi;
- maxsus ta'lif muassasalarini korreksion texnik vositalar, maxsus jihozlar bilan ta'minlashga erishildi;
- o'quv metodik baza yaratildi, metodik ta'minot ishlari mustahkamlandi;
- umumta'lif mакtablari o'qituvchilari uchun maxsus seminar o'quvlari tashkil qilindi joylarda ilgg'or pedagogik tajribalarni o'rgatish orqali ta'lifning integratsiyalashgan jarayoniga tayyorlandi;
- modernizatsiya qilingan umumta'lif DTSlarni maxsus inklyuziv ta'limga moslashtirildi.

Bugungi kunda esa, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lif sifatida inklyuziv ta'lif tan olinmoqda. Yangi O'zbekistonda ta'lif tizimini jahon standartlariga tenglashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning inklyuziv ta'lif tizimini rivojlantirishga qaratilgan farmonlari, qarorlari:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi 637-son "Ta'lif to'g'risida" gi Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi 641-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" gi qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktyabrdagi 638-son "Alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi qarori. Bugungi kunda esa, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lif sifatida inklyuziv ta'lif tan olinmoqda. Respublikamizda ta'lif tizimini jahon standartlariga tenglashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida" gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr.O'RQ-637-son
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" gi PQ-4860-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2021yil 12 oktyabrdagi «Alohiда ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-sod qarori.

4. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova "Inklyuziv ta'lif" Qo'qon-2023

5. X.N.Muzaffarov, D. Tangirova „Inklyuziv ta'lif“. library.samdukf.uz. Qaraldi: 10- noyabr 2022-yil.

6. Yo'ldasheva Marg'iyona Asrорxon qizi "O'zbekistonda inklyuziv ta'lifning rivojlanishi va istiqbollari"

7. Shomaxmudova R. «Maxsus va inklyuziv ta'lif» /Toshkent «Chashmaprint» 2011.

8.Аналитическая записка. "Обзор законодательства и политики в области инклюзивного образования в Узбекистане" ЮНИСЕФ, Детский Фонд Организации Объединенных Наций Ташкент 2018 г.

Internet resurslari:

1. <https://habr.com/ru/post/504632/>
 2. <https://melimde.com/azastan-respublikasi-bilim-jene-filim-ministrligi-i-altinsarin-v11.html?page=63>
 3. <https://pedsovet.org/article/nastoasee-i-budusee-inkluzivnogo-obrazovania-obsudili-na-forume-otkrytyj-mir>
 4. <http://io.nios.ru/articles2/102/2/rezultat-inklyuzivnogo-obrazovaniya-schastlivyy-rebyonok>
- 5.<https://www.unicef.org/uzbekistan/media/3561/file/Inclusive%20policy%20brief%20rus.pdf>

[AUTHORS INFO]

Boyqulov MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]
Azamat Mahram o'g'li Jizzax viloyat mahorat markazi "maktabgacha,boshlang'ich va maxsus ta'lif metodikalari kafedrasи o'qituvchisi. Преподаватель кафедры методики дошкольного, начального и специального образования Джизакского областного центра навыков. Teacher of the Department of Preschool, Primary and Special Education Methods, Jizzakh Regional Skills Center